

## X. KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI


2026- yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026- yilning 1-aprel holatiga viloyatda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 31 982 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi<sup>2</sup>



<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20- apreldagi PF-113- son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillashtirildi.



Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

	2025- yil 1-aprel holatiga, birlik	2026-yil 1- aprel holatiga, birlik
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>29 193</b>	<b>31 982</b>
Oltiariq tumani	1 733	1 961
Qo'shtepa tumani	1 045	1 130
Bag'dod tumani	1 052	1 108
Buvayda tumani	1 125	1 194
Beshariq tumani	982	1 045
Quva tumani	1 259	1 435
Uchko'prik tumani	1 512	1 625
Rishton tumani	1 227	1 297
So'x tumani	883	966
Toshloq tumani	1 239	1 288
O'zbekiston tumani	1 280	1 399
Farg'ona tumani	1 272	1 444
Dang'ara tumani	1 204	1 303
Furqat tumani	742	739
Yozyovon tumani	1 010	1 188
Farg'ona shahar	5 148	5 821
Qo'qon shahar	3 029	3 321
Quvasoy shahar	1 122	1 291
Marg'ilon shahar	2 329	2 427

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



2026- yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 12 878 ta, sanoatda 6 175 ta, boshqa xizmatlarda 3 644 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 2 152 ta tashkil etilgan.




## II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2026- yilning yanvar-mart oylarida 1 622 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2026- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 699 ta, sanoatda 261 ta, boshqa xizmatlarda 143 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarida 128 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni




Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

	2025- yil yanvar-mart oylarida, birlik	2026-yil yanvar-mart oylarida, birlik
Farg'ona viloyati	1 641	1 622
Farg'ona shahar	284	274
Qo'qon shahar	134	169
Yozyovon tumani	114	125
Marg'ilon shahar	85	114
Quva tumani	88	96
Qo'shtepa tumani	71	88
Oltiariq tumani	72	80
Farg'ona tumani	59	78
Buvayda tumani	81	76
Toshloq tumani	84	69
Uchko'prik tumani	67	61
O'zbekiston tumani	75	61
Rishton tumani	59	60
Beshariq tumani	84	56
Quvasoy shahar	65	51
Bag'dod tumani	71	49
So'x tumani	45	44
Dang'ara tumani	53	42

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati**

2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 8 229,5 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 59,8 % ini tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi



**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\) hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\)dagi ulushi \(choraklik\)](#)

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati**

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 3 786,7 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 80,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 124,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Quvasoy shahar (98,6%), Furqat tumani (98,2 %) va Buyayda tumani (97,5%) shahar va tumanlarga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi \(choraklik\)](#)

### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 10 299,3 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 86,6 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 2,5 marta ko'paygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Dang'ara tumani (99,2 %), Uchko'prik tumani (99,2 %), Quvasoy shahar (98,2 %) va Beshariq tumani (97,5 %) shahar va tumanlarga to'g'ri keldi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



#### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 4 905,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 94,6 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 110,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'shtepa tumani (98,3 %), Buvayda tumani (98,3%), Quva tumani (98,3%) va Yozyovon tumani (98,3 %) ga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini \(xizmatlarini\) ishlab chiqarish hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini \(xizmatlarini\) ishlab chiqarishdagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 8 885,7 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 88,3% ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 104,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi So'x tumani (86,5%), Farg'ona tumani (86,1 %), Quvasoy shahar (86,1 %) va Yozyovon tumani (85,9 %) ga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi



**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami chakana savdo aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati**

2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 15 031,4 milliard so'mni yoki umumiy hajmining 75,9 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 115,0 % ni tashkil qildi

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Farg'ona shahar (16,9 %), Qo'qon shahar (8,0%), Marg'ilon shahar (5,2%), Oltiariq tumani (3,0 %) va Buvayda tumani (2,8 %) ga to'g'ri keldi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi**



**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ko'rsatilgan xizmatlardagi ulushi \(choraklik\)](#)

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati**

2026- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 80,0 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 45,2 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Buvayda tumani – 100,0 %, So'x tumani – 100,0 %, Yozyovon tumani – 100 %, Marg'ilon shahar – 100,0 %ni tashkil qildi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi**



**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksporti hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksportidagi ulushi \(choraklik\)](#)

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati**

2026- yilning yanvar- martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 355,6 million AQSH dollarini yoki jami importning 81,7 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Buvayda tumani – 100,0 %, So'x tumani – 100,0 %, Toshloq tumani – 100,0 %, O'zbekiston tumani – 100,0 %, Dang'ara tumani – 100,0 %, Yozyovon tumani – 100,0 % ni tashkil etdi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi**



**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importi hajmi \(choraklik\)](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importidagi ulushi \(choraklik\)](#)

**III. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari**

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi**


2026- yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,7 % ni tashkil etdi. 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,0% ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,2 % ni tashkil etgan bo'lib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,5 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-mart, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,2% ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 99,6 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-mart, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 98,3 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,2 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi tashish hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)

**IV. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari**

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

2026- yilning yanvar-martida kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun a'lo deb baholagan korxonalar ulushi 23,8 % ga yetgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini yaxshi deb baholagan korxonalar ulushi 54,0 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini o'rtacha deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 19,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, iqtisodiy vaziyatini yomon deb hisoblagan korxonalar ulushi 2,8 % ga yetgan.


Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2022- yilning yanvar-martida 31,0 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-martida 51,3 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalar ulushi 2022- yilning yanvar-martida 53,0% bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-martida 46,9 %. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalar ulushi esa

2022- yilning yanvar-martida 3,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilning yanvar-martiga kelib, bu ko'rsatkich 1,8 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning yanvar-mart oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2026- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini a'lo deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – 27,5 % ni, sanoatda – 25,5 % ni va qurilishda – 22,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini yaxshi deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda – 57,6 % ni, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 57,4 % ni va savdoda – 53,9 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini o'rtacha deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – 23,0 % ni, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 20,8 % ni va sanoatda – 19,3 % ni tashkil etdi. Iqtisodiy vaziyatini yomon deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 5,0 % ni va qurilishda – 4,3 % ni tashkil etdi.



**Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)**



**V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar**

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

- [Korxonalar va tashkilotlar soni](#)
- [Kichik biznes ko'rsatkichlari](#)
- [Kichik biznesning tarmoqlar bo'yicha ulushi](#)

**Mas'ul:**  
Tadbirkorlik subyektlari  
kuzatuvlari bo'limi

**Manzil:** 150100, Farg'ona shahar,  
Oq yo'l ko'chasi, 104 a-uy  
**Pochta:** farstat@farstat.uz  
Tel: 73 241-98-48 (4030)